

**AHMAD SARDOR OBRAZINING ETNOGENITIK VA MIFOLOGIK
MANBALARI****Pardayeva Mufassal Zafar qizi,***Alisher Navoiy nomidagi**Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti 2-kurs magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada "Go'ro'g'li" dostonidagi Ahmad sardor obrazi har tomonlama tahlil qilinadi. Unda qahramonning dastlab tarbiyachi va rahnamo sifatidagi o'rni, keyinchalik esa epik xiyonatchi va raqib obraziga aylanish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, Ahmad sardor va Go'ro'g'li o'rtasidagi tog'a-jivan munosabatlari asosida dostonning ijtimoiy ildizlari, xususan, matriarxat an'analari va ularning patriarxat tizimiga o'tish davridagi aks etishi ilmiy asosda izohlangan. Maqolada o'zbek, turkman, ozarbayjon va tojik variantlari qiyosiy tahlil qilinib, Ahmad sardor obrazining turli talqinlari ochib beriladi. Tadqiqot natijasida Ahmad sardor obrazi epik an'ananing rivojlanish jarayonida shakllangan murakkab va ko'p qirrali obraz ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: Ahmad sardor, Go'ro'g'li, yetakchi qahramon, mifologik manbalar, doston tahlili, folklori, obrazlar tizimi.

Annotation. This article provides a comprehensive analysis of the character of Ahmad Sardar in the epic "Go'ro'g'li". It examines the hero's initial role as a mentor and guide, and later his transformation into an epic traitor and rival. The study also explores the social roots of the epic through the uncle-nephew relationship between Ahmad Sardar and Gorogly, particularly highlighting the reflection of matriarchal traditions and their transition into a patriarchal system. Furthermore, Uzbek, Turkmen, Azerbaijani, and Tajik versions of the epic are comparatively analyzed, revealing different interpretations of Ahmad Sardar's character. The research concludes that Ahmad Sardar is a complex and multifaceted figure shaped in the course of the development of epic tradition.

Keywords: Ahmad Sardar, Gorogly, leading character, mythological sources, epic analysis, folklore, system of images.

Аннотация. В данной статье проводится всесторонний анализ образа Ахмада Сардара в эпической поэме «Горогли». Рассматривается первоначальная роль героя как наставника и лидера, а затем процесс его трансформации в эпического предателя и соперника. Также, на основе отношений дяди и племянника между Ахмадом Сардаром и Горогли, научно объясняются социальные корни эпоса, в частности, традиции матриархата и их отражение в период перехода к патриархальной системе. В статье представлен сравнительный анализ узбекской, туркменской, азербайджанской и таджикской версий, выявляющий различные интерпретации образа Ахмада Сардара. В результате исследования делается вывод о том, что образ Ахмада Сардара является сложным и многогранным образом, сформированным в процессе развития эпической традиции.

Ключевые слова: Ахмад Сардар, Горогли, главный герой, мифологические источники, эпический анализ, фольклор, система образов.

Kirish. "Go'ro'g'li" dostonining tub asoslarini yoritishda bosh qahramon, ota ona, farzandlari bilan bir qatorda dostonidagi yetakchi obrazlarni ham o'rganishimiz muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shunday yetakchi qahramonlardan biri Ahmad sardor obrazi. Ahmad sardor Yovmit yurtining podshohi Odilxonning ikkinchi o'g'li Go'ro'g'lining tog'asi. O'zbek folklorshunosligida Ahmad Sardor haqida mavjud xulosalar Xodi Zarif va V.M.Jirmuniskiyning "Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos" kitobida aytilgan fikrlar asosida shakllangan. Ularning fikricha Yovmit yurtining podshoxi Odilxonning ikkinchi

o'g'li Ahmadbek jiyani Go'ro'g'lini o'z tarbiyasiga olib uylantiradi. Lekin dostonlarning keyingi rivojida o'zbek versiyasidagi epik xiyonatchi, yovuz niyatli xoin, qutquchi roli ham aynan shu Ahmad Sardor zimmasiga tushadi. Olimlar Ahmad Sardorning jiyaniga nisbatan bu xildagi zimdan o'zgarishni, dostonlarda ko'rsatilganidek, Ahmad Sardordagi ichi qoralik, ota hokimiyatini begonalar (Avaz, Xasan) egallab olayotganidan kuyinish bilan izohlanishiga ishorat qilishadi. Ayni paytda Ahmad Sardorning barcha qutqu va xiyonatlarning Go'ro'g'libek tomonidan jazosiz qolishi va uning doimiy ravishda qirq yigitning bir qanoti yigirma yigitga boshliq bo'lib turaverishini asoslanmagan motiv sifatida baholab, bu holatni Ahmad Sardor obrazi epos tarkibiga keyinchalik kiritilganligidan bo'lsa kerak, deb yozishgan.

Adabiyotlar sharhi. Tarbiyachi rahnamo va keyinchalik raqibga aylangan Ahmad sardor va Go'ro'g'lining "tog'a-jiyan"lik munosabatlarida o'ziga xos bir jumboq mavjud. Ya'ni Odilxon taxtiga uning o'g'li Ahmadbek emas, qiz tomon avlodi Go'ro'g'lining o'tirishi zamirida doston genezisining tarixiy asoslariga tegishli tayanch hayotiy asos turibdi. Chunki taxtning ota urug'i emas, ona urug' vakiliga meros bo'lib o'tishi O'rta Osiyo xalqlari tarixida ham bir bosqich sifatida kechganligini S.L.Tolstov o'zining "Древний Хорезм" kitobida alohida qayd qilib o'tgan. Jumladan, olim shunday yozadi: "Massagetlarning sharqiy tarmog'i issedonlar "ayolning erkaklar bilan bir xil mavqeda turishi adolatdandir" deb hisoblashadi. Baqtriya istilosi (eradan oldingi II asr) davrida yuyechjiy qabila birlashmalariga ayol xoqon edi. Yuechjilardagi ayol hukmronligi an'analari ona urug' yetakchilik qilgan davr izlarini saqlagan. "... Massagetlar - yuyechji va Aqqag'az "skiflari"ning avlodi bo'lmish o'g'uz - turkmanlar XVII asrlarda ham o'g'uz saltanatini boshqargan yetti hukmdor qiz haqidagi xotirani aytib yurishadi". Chindan ham "Go'ro'g'li" turkumida tog'a-jiyan yo'nalishi eposning hamma versiya, variantlari va epos bosqichlarida mukammal ravishda o'z badiiy talqiniga ega. Aksincha, real ota yo'nalishi "Go'ro'g'li" turkumiga tegishli bir qism versiya va variantlardagina mavjud bo'lib, u ham doston voqealari tizimining dastlabki qismidagina ishtirok etadi. Ayni holat ham "Go'ro'g'li" turkumidagi tog'a-jiyanlik munosabatlari epos voqeligini tutib turuvchi o'zak yo'nalish ekanligini isbot etadi hamda "Go'ro'g'li" dostonining ijtimoiy asosi matriarxat tuzumi an'analari zamirida shakllangan, deb aytishga imkon beradi. Yanada aniqroq aytilsa, matriarxat tizimdan patriarxat tizimga o'tish davri munosabatlari "Go'ro'g'li" dostoni voqeligining sotsial asosi bo'lgan. Bu holat dostonning "Qo'rg'on-Po'lkani" variantida yanada serqatlam badiiy talqinda berilgan. Ya'ni Yovmit elining podshosi Odilxonning ikki o'gli Urayxon va Ahmadbek hamda Bibi Oysha ismli qizi bor edi. Bibi Oysha va To'laboy sinchidan Ravshanbek tug'iladi. Tabiiy ravishda Ravshanbek Urayxon va Axmadbekka jiyani bo'ladi. Bu orada Ravshanbek Shohdorxon yurtiga asr tushib izzsiz ketadi. Urayxon va Ahmadbek uni surishtirmaydi (ushbu o'ringa e'tibor qaratish lozim). Yovmit eli Taka Yovmit eposining bir qanoti hisoblanardi. Ayni paytda etnosning ikkinchi qanoti Taka eli hukmdorining o'gli Gajdumbek Shohdorxon qo'lida mulozimlik qilardi

(aslida garov sifatida tutib turilgan). Ravshanbek Shohdorxon mamlakatida ana shu Gajdumbekning singlisiga uylanadi va sinchiligi ma'lum bo'ladi. Shohdorxonga haq gapni aytgani uchun ko'r qilingach, Gajdumbek bilan birga Taka-Yovmitga qochib kelishadi. Bibi Xilol esa gumonasi bilan yov qo'lida qolib halok bo'ladi. Go'ro'g'li qabrda tug'iladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib aytganda matriarxat tizimi an'alariga ko'ra Taka-Yovmit taxtiga Urayxondan yoki Ahmad Sardor emas Go'ro'g'li o'tiradi. Urayxon va Ahmadbeklar faqatgina qo'mondon lavozimiga o'tirishi mumkin. Shu sababli ham Ahmadbek Go'ro'g'lining yonida doim Sardor qirq yigitning bir qanoti yigirmata yigitga doim bosh bo'lib turadi. Shuning uchun ham Ahmadbekka Sardor nomi qo'shib aytiladi.

Ahmad sardor obrazi qardosh mamlakatlar mifologik manbalarida bizniki kabi emas harakter xususiyatlari jihatdan boshqacha obraz sifatida gavdalanganligini ko'rishimiz mumkin. Hatto ularning ayrim versiyalarida Ahmad sardor nomi umuman keltirilmaganligiga ham guvoh bo'lamiz.

H.T.Zarifov va B.M.Jirmuniskiy yozadilar: "Turkman eposi epik badkor obrazining bu yangi namoyandasini bilmaydi. Lekin bevosita o'zbek og'zaki poetik an'analari asosida shakllangan tojik "Go'ro'g'li"sida Ahmad sardor qamchisidan qon tomuvchi johil, xiyonator va qutquchi turkman hukmdori sifatida tasvirlanadi hamda u doimo shu jihatlariga ko'ra jiyani bilan kelisha olmaydi". Tojik manbalari versiyasida Ahmad sardor Go'ro'g'lining tog'asi emas balki zolim hukmdor sifatida tasvirlangan ekan. Bizning dostonlarda Go'ro'g'liga yokida Avazga raqib sifatida kelishi mumkin, ammo johil hukmdor sifatida dostonning hech qayerda bu qiyofada uchratmaymiz.

Natijalar. Turkman va ozarboyjon "Go'ro'g'li"larida Ahmad sardor ismli obraz yo'q. Lekin barcha jihatlarigalari, doston syujetida tutgan o'rni, semantik vazifasiga ko'ra Ahmad Sardorga mos keluvchi obrazni turkman "Go'ro'g'li"sida ko'ramiz. Bu Ganjimbek obrazidir. Turkman versiyasiga ko'ra Jig'alibekning uch o'g'li bo'ladi. Birinchi o'g'li - Ganjimbek. U dunyoparast, xasis, mol-mulk yig'ib, boy bo'lib, otasidan ajraladi. Ikkinchi - Muminbek. Uning aqli kirdi-chiqdiroq, ko'zi ham shilpiq bo'ladi. Uchinchi o'g'li - Adibek olomonchi, bosqinchi, chopish - jangu jadal, jo'rabozlikka o'ch bo'ladi. Qirq yigitga bosh bo'lib chopqinlar bilan kun o'tqazardi. Go'ro'g'li ana shu Adilbekning o'g'li edi. Adilbek o'lgach, Go'ro'g'li (Ravshan) bobosi Jig'alibek qo'lida qoldi. Ravshan Xunxor yurtidan ko'r qilingan bobosi Jig'alibek bilan qaytib kelgach, bu orada Muminbek ham o'lib, Arab Gulandoni olib qochib ketadi. G'ivot tug'ilib, Go'ro'g'li ovoza chiqarib atrofiga yigitlar to'planib, Xunxor shoxdan o'ch olib qaytgach, dostonning keyingi syujet rivojida, ya'ni Go'ro'g'lining uylanishi va Arabdan or (uch) olish uchun borishida jo'natuvchi taxkirchi (raqib) vazifasini Ganjimbek o'ynaydi, Ganjimbekning bu vazifasi Ahmad sardorning "Xushkeldi", "Avazning arazi", "Intizor", "Xoldorxon", "Malika ayyor" kabi dostonlardagi jo'natuvchi-taxkirchi vazifasiga aynan mos tushadi. Ahmad sardor va Ganjimbek obrazlarining mohiyatan bir xilligi ularning aslida bir umumiy

o‘zakdan o‘sib, rivoj topganligidan dalolat beradi. Lekin bu obrazlarning tub asosi davrlar o‘tishi, turli sharoit va o‘ziga xos yuksalishda taraqqiy topgan adabiy muhit an‘analari o‘zanida o‘ziga xos ravishda talqin etilgan.

Ahmad Sardorning qahramonga tarbiyachi, rahnamoligi motivini har jihatdan asoslash so‘nggi davrlargacha davom etmoqda. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining o‘zbek versiyalaridagi qahramon tarbiyachisi kim ekanligini qarab chiqaylik.

A) G‘ayritabiiy homila motivi mavjud versiyalarda:

1. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li versiyasi. Tarbiyachi rahnamo - Ahmad sardor. Qahramonning oilasi Ahmad Sardorning singlisi, deyilgan.

2. Soibnazar Ahmad - Laqay versiyasi. Tarbiyachi rahnamo - Ahmad Sardor. Qahramonning onasi Ahmad Sardorning singlisi.

3. Tosh shoir versiyasi. Tarbiyachi rahnamo - Ahmad Sardor. Qahramonning onasi Ahmad sardorning singlisi.

4. Imom Nasriddinov - Namangan versiyasi. Tarbiyachi rahnamo Ganjibek. qahramon Ganjibekning qizi.

B) Tabiiy homila motivi mavjud versiyalarda:

1. Qo‘rgon versiyasi (Po‘lkan va Egamberdi Ollabergan o‘g‘li, Raxmatulla Yusuf o‘g‘li variantlarida). Tarbiyachi rahnamo - Ahmad sardor. Qahramonning otasi Ravshan Ahmad sardorga jiyani (Ayni paytda, Go‘ro‘g‘lini go‘rdan olib yetti yoshigacha voyaga yetkazgan kishi Rustam). Qahramonning onasi Ganjubekka singil hisoblanadi.

2. Haydar Boytayev versiyasi. Tarbiyachi rahnamo - Ahmad Sardor. Qahramonning onasiga Ahmad sardor o‘gay aka (ota bir, ona boshqa). Ganjubek qahramon onasining tugishgan akasi.

3. Amin shoir versiyasi. Tarbiyachi rahnamo Ganjubek. Qahramon onasi Ganjubekning kizi (singlisi).

Keltirilgan barcha versiyalar o‘zaro qiyoslab chiqilsa, quyidagicha holat ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi: Ikki versiyada (Namangan va Amin shoir versiyalarida) Ahmad sardor nomi uchramaydi. Ularda tarbiyachi rahnamo tog‘a, ota - Ganjibek (Gajdumbek). Fozil shoir, Tosh shoir va Laqay versiyalarida aksincha, tarbiyachi, rahnamo tog‘a Ahmad sardor bo‘lib, Ganjibek (Gajdumbek) nomi yo‘q. Qo‘rgon va Haydar Boychayev versiyalarida esa Ahmad sardor va Gajdumbek (Ganjimbek) qahramon shajarasi baravar ishtirok etib, Gajdumbek qahramonga tuqqan tog‘a, Ahmad sardor ota tomonidan (qo‘rg‘on versiyasi) yoki o‘gay tog‘a (Haydar Boychayev versiyasi) sifatida keladi. Lekin doston syujetining keyingi rivojida tarbiyachilik vazifasi Ahmad sardor zimmasiga tushadi. Demak, turkman versiyasi uchun asosiy qutquchi, jo‘natuvchi qarindosh bo‘lgan Ganjibek obrazi o‘zbek versiyalari orasida ham mavjud ekan (mohiyatan unga mos kelmasa-da). To‘g‘rirog‘i, dostonning o‘zbek versiyalarida Gajdumbek obraziga xos xususiyatlarni Ahmad sardor obrazi to‘la ifodalab keladi. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonining o‘zbek versiyalari Ganjdumbek va Ahmad sardor

obrazi ishtiroki nuqtai nazaridan o‘zaro qiyoslab chiqilsa, quyidagi holatni kuzatish mumkin:

A) ko‘rinish: Tarbiyachi (raqib) - Ahmad sardor (Fozil shoir versiyasi, Tosh shoir versiyasi, Laqay versiyasi);

B) ko‘rinish: Raqib (tarbiyachi) - Ganjibek (Gajdumbek) (Namangan versiyasi, Turkman versiyasi, Amin shoir versiyasi);

C) ko‘rinish: Tarbiyachi (raqib) - Ahmad sardor; Tuqqan tog‘a - Gajdumbek (Qo‘rgon versiyasi, Haydar Boychayev versiyasi).

Xulosa. Ushbu qiyos natijalari quyidagi xulosalarni beradi. Eposning o‘zbek versiyalari biz shartli ravishda ilk bosqich sifatida olgan namunalari asosiy qismida Gajdumbek nomi uchramaydi. Ayni paytda dostonning turkman versiyasida Ahmad sardor nomi yo‘q. Bu esa ushbu nom sof o‘zbek versiyalariga xos, degan fikrga kelishga asos beradi, o‘zbek versiyalari orasida Namangan va Amin shoirlar ijro etgan qahramonning tug‘ilishi bilan bog‘lik dostonlarda tarbiyachi sifatida Ganjimbek nomi keladi. Dostonning Qo‘rgon va Haydar Boychayev variantlarida esa asosiy tarbiyachi raqib Ahmad sardor bo‘lsada, Gajdumbek obrazi xam qahramonning tug‘ilishi bilan bog‘lik voqealar tafsilotida ishtirok etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ходи Зариф ва В.М.Жирмунскийларнинг “Узбекский народный героический эпос” китоби.
2. Турдимов Ш. “Гўрўғли” дostonларининг генезиси ва тадрижий босқичлари. – Тошкент: Фан, 2011.
3. Mirzayev, T. O‘zbek folklori: janrlar, tarixi va poetikasi. Toshkent: Akademyashr, 2015.
4. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi/ Aytuvchi: Muhammad Jomurot o‘g‘li Po‘lkan shoir. Yozib oluvchi: Hodi Zarifov. Nashrga tayyorlovchi: Malik Murodov. Qayta nashrga tayyorlovchi, iqtibos va izohlarni kirituvchi: Ergashboy Matyoqubov. -Toshkent: Ilm ziyo zakovat, 2021.